

METAKOMPETENTLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI, TARKIBIY QISMLARI VA AHAMIYATI

Nurmatova Maftuna Ashurali qizi

Farg'ona davlat universiteti O'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17403122>

Annotatsiya: Ushbu maqolada metakompetentlik insonning ichki imkoniyatlari va chegaralarini bilish, o'zining kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini yaxshilashga yordam berish imkoniyatlari yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (person-oriented education) sharoitida pedagoglarda metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirishda, metakompetentlik tushunchasining mohiyati, tarkibiy qismlari va ahamiyati ifodalangan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, yuksak saviya, bilim, shaxs, kognitiv, motivatsion, intellektual salohiyat, uzluksiz ta'lim, kasbiy rivojlanish, kasbiy o'sish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности метакомпетентности для понимания внутренних возможностей и границ человека, выявления своих сильных сторон и помощи в улучшении слабых сторон. Выражена сущность, компоненты и значение понятия метакомпетентности в совершенствовании организационно-методической системы развития метакомпетентности у педагогов в условиях личностно-ориентированного образования (person-oriented education).

Ключевые слова: наука, высокий уровень, знания, личность, когнитивный, мотивационный, интеллектуальный потенциал, непрерывное образование, профессиональное развитие, профессиональный рост.

Abstract: This article highlights metacompetence's ability to understand a person's internal capabilities and limits, identify their strengths, and help improve their weaknesses. The essence, components, and significance of the concept of metacompetence in improving the organizational and methodological system for the development of metacompetence in teachers in the context of person-oriented education are expressed.

Key words: science, high level, knowledge, personality, cognitive, motivational, intellectual potential, continuous education, professional development, professional growth.

KIRISH

“Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o'nlab muhim Farmon, Qaror konsepsiyalar va dasturlar qabul qilindi”¹.

Shuni alohida aytish mumkinki O'zbekiston Respublkasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi”², bunga nisbatan pedagog kadrlarni jalb qilish, ularni kelajakda yuksak saviya, bilim, ma'naviyatga ega bo'lgan pedagog-olimlar, barkamol avlodni tarbiyalashga va bilimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar asosida, ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda hamda ilm-fan yo'lida xizmat qilish, ta'lim sifatini yaxshilash, kelajak avlodning bilim darajasini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Xozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarib, yoshlarning barqaror mustahkam

¹Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2022й. – Б. 223.

²Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan.seminar trening. <https://daryo.uz/2020/10/30/>.

rivojlanishiga, bilim olishga, kamolga yetishga har qachongidan ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu jarayonda har bir insonning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun metakompetentlik sifatleri muhim rol o'yanaydi. Metakompetentlik-bu shaxsning o'zining bilimlari va ko'nikmalarini boshqarish, ularni samarali ravishda qo'llash va rivojlantirish qobiliyati, bu boradagi bilim va ko'nikmalari majmuasini anglatadi. Mazkur konsepsiya asosan ta'limning pedagogik jarayonlarini va shaxsiy rivojlanish sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Metakompetentlikning birinchi va eng muhim sifati, bu - o'z-o'zini anglashdir. Inson o'z kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, qiziqishlari va maqsadlarini aniqlash orqali o'zining shaxsiy rivojlanishini samarali ravishda rejalashtira oladi. Bu sifat yordamida odamlar o'zlarini yanada yaxshi tushunishga erishadilar va kelajakdagi muvaffaqiyatlari va yutuqlariga tayyor bo'lishadi. Metakompetentlikni rivojlantirishda, kognitiv, motivatsion-shaxsiy, faoliyatli, vositali va refleksiv metakomponentlarini oliy pedagogik ta'lim mazmuniga keng tadbiiq etish, bo'lajak pedagoglarni samarali pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarning yuksak iqtidor egasi va bilimli qilib tarbiya berishda pedagoglarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirishda "intellektual salohiyat" sifati pedagogik faoliyatning intellektual tomonini aks ettiradi, bu esa o'z navbatida kasbiy vakolatlariga oid masalalar bilan chambarchas uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish bosqichida mamlakatimizning turli sohalari hamda yangilanish jarayonlarida intellekti, salohiyati, aqliy qobiliyatlari, ijodkorligi yuqori bo'lgan, bilimli, axloqli, madaniyatli, ma'naviyati yuksak yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash va voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim darajasi, unda berilayotgan bilimlar saviyasi va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayonlarini hisobga olish zarur bo'ladi. Shu ma'noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning "Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jismu tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir"³ deya e'tirof etadi. Zamonaviy jamiyatlardagi yoshlar intellektual salohiyat samaradorligini quyidagi mezonlar bo'yicha baholash mumkin.

Birinchidan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati (ilmiy nashrlar, grandlar, akademik harakatchanlik, tanlovlarda va konferentsiyalardagi faolligi).

Ikkinchidan, mehnat bozorida bitiruvchilarga talab (ish bilan ta'minlangan bitiruvchilar soni).

Uchinchidan esa, ish beruvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki (tashkilotlar buyurtmasi bo'yicha bitiruv malakaviy ishlarni bajarish, nazariy va amaliyot uygunligini ta'minlash) dan iborat bo'ladi. Professor N.Muslimov o'zining doktorlik dissertatsiyasida mutaxassislarning kasbiy faoliyatini tashkil etish borasidagi fikrlarni berib, u quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Shaxsda kasbiy sifatlarning mavjudligi uning mutaxassis sifatida shakllanganlik ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Mutaxasning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayoni ma'lum bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi".⁴ Yoshlarning bilim darajasi o'sishi, intellektual salohiyatning shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy mehnat bozorida yuqori

³Абдурауф Фитрат. Оила.-Тошкент;.Маънавият, 2000й. -Б.55.

⁴Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Т.: 2007. —Б. 132

raqobatbardoshlikning kafolati hisoblanadi. Uzlüksiz ta'lim va kasbiy rivojlanish yoshlarning intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa kasbiy o'sish va turmush darajasini ko'tarish istiqbollarini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining metakompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini aniqlashda, baholash vositalari fondini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining metakompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini baholashning diagnostik vositalarini ishlab chiqish metodikasini K.F.Gabdraxmanova⁵, kompetentsiyalarni baholash uchun baholash vositalari tipologiyasi L.M.Boltunova, I.N.Emelyanovalar⁶, ko'p darajali ta'lim dasturlarini amalga oshirishda baholash vositalarini loyihalashga oid metodik ko'rsatmalar bo'yicha V.A.Bogoslovskiy, Ye.V.Karavaeva, E.N.Kovtun va boshqalar⁷, texnika OTMlari talabalarining o'z o'zini yuksaltiruvchi kompetentsiyalarini kvalimetrik baholash texnologiyalari vositasida loyihalash G.R.Garafutdinovalar⁸ tomonidan tadqiq etilgan.

Jamiyatda yoshlarning qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan ajdodlar ilmiy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytirish asosida zamonaviy tarbiyaviy mexanizmlarni yaratish, yoshlar ma'naviy madaniyatidagi kognitivlik, siyosat, axloq tadrijiyligi va shaxs, jamiyat, davlatning ob'ektiv imkoniyatlarini pedagogik jihatlarini ochib berish dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Metakompetentsiyani rivojlantirish tajriba orttirish jarayonida ta'lim oluvchi "muayyan fan sohasida turli xulq modellarini topish va sinab ko'rish, ular ichidan uning tarziga, talablariga, didiga va qadriyatlariga eng moslarini tanlash" orqali mukammallashib boradi. Shu tariqa, kompetentsiya – bu insonning shaxsiy xususiyati, individning turli vazifalarni bajarishga tayyorligi bo'lib, faoliyat davomida shakllanadi va shu faoliyatga bo'lgan qadriyat-mazmun munosabatini shakllantiradi.

Metakompetentlik insonning ichki imkoniyatlari va chegaralarini bilish, o'zining kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini yaxshilashga yordam beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (person-oriented education) sharoitida bo'lajak pedagoglarda metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirishda, ta'limning pedagogik modelini takomillashtirish, talabalarda jamiyatni va ijtimoiy hodisalarni o'rganishga qiziqishini ortirish jarayonida integrativ yondashuvning o'ziga xos jihatlarini aniqlashtirish, ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, bugungi kunda eng muhim kerakli bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda metakompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bu borada DTS me'yorlari va OTM talabalarining asosli jamlanmasi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi.

⁵Габдрахманова К.Ф. Методика разработки диагностических средств оценки уровня сформированности профессиональных компетенций студентов технического вуза / К.Ф. Габдрахманова // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2–15. – С. 3361–3364.

⁶Болтунова Л.М., Емельянова И.Н. Типология оценочных средств, предназначенных для оценки компетенций. // Педагогическое образование в России. 2014. № 11– С. 84-87.

⁷Богословский В.А., Караваева Е.В., Ковтун Е.Н. [и др.]. Методические рекомендации по проектированию оценочных средств для реализации многоуровневых образовательных программ ВПО при компетентностном подходе. – М.: Изд-во МГУ, 2007. – 148 с.

⁸Гарафутдинова Г.Р. Модель формирования профессиональной компетентности выпускника вуза // Фундаментальные исследования. – 2008. – № 5. – С. 57-59; УРЛ:<http://фундаменталресерч.ру/ру/-артикле/виюв?ид=2915>.

Birinchidan; mintaq va OTMning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda milliy talablarga aniqlik kiritish;

Ikkinchidan; o'zlashtirilayotgan yo'nalish yoki tayyorlash dasturiga muvofiq, kompetentsiyalarga berilgan ta'riflarga aniqlik kiritish;

Uchinchidan; kompetentsiyalarga berilgan ta'riflarni tushuntirish yoki soddalashtirish;

To'rtinchidan; kompetentsiyalarni darajalar, ko'rsatkichlar va deskriptlar bo'yicha tarkiblashtirish.

O'quv dasturini o'zlashtirish bo'yicha rejalashtirilgan natijalar – bu ta'lim oluvchilarning ta'lim standartida belgilangan kompetentsiyalariga qo'shimcha ravishda, ta'lim dasturining yo'nalishi (profili)ni hisobga olgan holda, tashkilot tomonidan belgilangan kompetentsiyalar (bunday kompetentsiyalar belgilangan taqdirda) sifatini, uning ishlab chiqarish qobiliyati tajriba, bilim, ko'nikma, malakalar sinergiyasi shaklida noyob nusxa ko'chirish qiyin bo'lgan resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'limni modernizatsiya qilish oliy o'quv yurtida o'qishning asosiy vazifasi, malakali, raqobatbardosh, barkamol, mas'uliyatli, o'z kasbini mukammal biladigan, tegishli faoliyat sohalariga yo'naltirilgan, samarali faoliyat yurita oladigan, jahon standartlari darajasida, doimiy kasbiy o'sishga tayyor, professional mobillikni namoyon etgan mutaxassisni tayyorlashni nazarda tutadi.

Metakompetentlikni mohiyatini aniqlashning turli yondashuvlarini tahlil qilish asosida kompetensiya, shaxsning asosiy integrativ xususiyatlari boshqa insonlar bilan munosabatlarni rivojlantirishdagi yutuqlarini aks ettiradi, pedagogik vaziyatni o'zlashtirishni ta'minlaydi va uning xatti-harakatlarini vaziyatga qarab va jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga muvofiq samarali tashkil etishga imkon beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2022й.
2. Президент Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan seminar trening. <https://daryo.uz/2020/10/30/>.
3. Абдурауф Фитрат. Оила.-Тошкент;Маънавият, 2000й.
4. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. -Toshkent.: 2007.
5. Габдрахманова К.Ф. Методика разработки диагностических средств оценки уровня сформированности профессиональных компетенций студентов технического вуза / К.Ф. Габдрахманова // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2–15.
6. Болтунова Л.М., Емельянова И.Н. Типология оценочных средств, предназначенных для оценки компетенций. // Педагогическое образование в России. 2014. № 11.
7. Богословский В.А., Караваева Е.В., Ковтун Е.Н. [и др.]. Методические рекомендации по проектированию оценочных средств для реализации многоуровневых образовательных программ ВПО при компетентностном подходе. – М.: Изд-во МГУ, 2007.
8. Гарафутдинова Г.Р. Модель формирования профессиональной компетентности выпускника вуза // Фундаментальные исследования. – 2008. – №5. УРЛ:<http://фундаменталресерч.ру/ру/-артислe/view?ид=2915>.